

ISHLAB CHIQUARISHNING IJYIMOY HAYOTDAGI O'RNI VA IQTISODIY AHAMYATI

Amirov Temur Mashrab o'g'li

"Iqtisodiyot nazaryasi" kafedrasida assistenti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ishlab chiqarishning ijtimoiy hayotdagi o'rni va ahamiyati, firmaning bozor sharoitidagi xatti-harakatlari, resurslarning pirovard unumdorigini ta'minlashning yo'l-yo'riqlari bayon etilgan.*

Kalit so'zlar: *iqtisodiy munosabat, iqtisodiyot, rivojlanish, ishlab chiqarish, dunyo iqtisodiyoti, firma, marketing.*

Kirish: Keng ma'noda «ishlab chiqarish» deganda kishilarning tog'ridan- to'g'ri moddiy ne'matarga bo'lgan talabini qondirishga qaratilgan har qanday faoliyat tushuniladi. Kishilik faoliyatining turli xil tomonlari: chorvachilik, dehqonchilik bilan shug'ullanishi, yerga ishlov berish, sanoat mahsuloti ishlab chiqarish uchun xomashyoni qayta ishlash kabilardan iborat, Hozirgi zamon fanida «ishlab chiqarish tushunchasi turi xil moddiy ne'matlarni ishlab chiqarish faoliyati bilan kifoyalanib qolmay, balki fuqarolar, xizmat qiluvchi bankirlar, advokatlar, o'qituvchilar, tibbiyot xodimlari, olimlar va boshqalarning turli xildagi xizmat ko'ratish jarayonlarini ham o'z ichiga oladi. iqtisodiy nuqtai nazardan

«ishlab chiqarish ijtimoiy takror ishlab chiqarishning quyidagi to'rtta bosqichidan biri hisoblanadi: ishlab chiqarish - taqsimlash - ayirboshlash - iste'mol.

Asosiy qisim: Ishlab chiqarish takror ishlab chiqarishning boshga bosqichlariga qaraganda birinchi o'rinda turadi va hal qiluvchi ahamiyatga ega. Dunyoga mashhur iqtisodchilar xulosa qilishicha; «ma'lum darajadagi ishlab chiqarish..... ma'lum miqdordagi iste'molni, taqsimotni, ayirbosh qilishni va bunday turli xil holatlarni bir-biriga bo'lgan ma'lum darajadagi munosabatlarini taqozo etadi». Ishlab chiqarishni jamiyatni rivojlanishidagi eng asosiy omil ekanligini birinchi bor dunyo iqtisodiyotida ingliz siyosiy iqtisodi klassiklari bo'lgan U.Petti, A.Smit, D.Rikardolar va fransuz fiziokratlari F.Kene, A.R.Tyurgo, V.Mirabo, P.Dyupon de Nemurlar ajratgan. Marks ularning ijtimoiy taraqqiyotning asosi ishlab chiqarish ekanligi to'g'risidagi tezisini rivojlantirgan. XIX asr oxiridagi klassik marjinal iqtisodiy nazariyasi bilan to'ldirildi. Ularning fikricha jamiyat rivojini harakatlantiruvchi kuch bu ishlab chiqarish emas, balki iste'mol sohasidir. Xuddi shu kishilarning o'zgaruvchan talablari iqtisodiyotni rivojlantirish dastagi hisoblanadi: «... **kishilar o'zlarining talablari bilan — Har qanday kishilik xo'jaligining dastlabki va oxirgi manzilini tashkil etadi**». Marjinalistlarda buyumlarning qiymati emas, foydaliyligi ilmiy tadqiqotning dastlabki bug'ini bo'lib hisoblanadi. Ular pirovard miqdorlarga tayanib ish ko'radilar. Iqtisodiy faoliyatning maqsadi nima? Bu umuman narsalarni ishlab chiqarishni ko'paytirish emas, balki foydali, qimmatga ega bo'lgan ne'matlarni, ya'ni kishilar nimani qadrlasalar shuni ishlab chiqarishni ko'paytirish zarur. Ne'matlarni qiymati esa ayirboshlash jarayonida yuzaga

chiqadi. Ishlab chiqarish


— jamiyatning yashashi va taraqqiy etishi uchun zarur bo'lgan moddiy boyliklar (turli iqtisodiy mahsulotlar)ni yaratish jarayoni; ishlab chiqarish omillarini iste'mol va investitsiyalar uchun mo'ljallangan tovarlar va xizmatlarga aylantirish. Ishlab chiqarish inson hayotining tabiiy sharoiti va boshqa faoliyat turlarining moddiy asosidan iborat. Kishilik jamiyati taraqqiyotining hamma bosqichlarida Ishlab chiqarish zarur. Uning mazmunini mehnat jarayoni belgilaydi. Ishlab chiqarish jarayoni 3 element — mehnat, mehnat ashyolari va mehnat vositalari bo'lishini taqozo etadi. Ijtimoiy Ishlab chiqarish ishlab chiqarish vositalari Ishlab chiqarish va iste'mol buyumlari Ishlab chiqarishdan tashkil topadi. Bu bo'limlarning har biri ko'plab xo'jalik tarmoqlaridan iborat bo'lib, ularda turli Ishlab chiqarish vositalari va iste'mol buyumlari yaratiladi. Birinchi bo'limning ikkinchi bo'limga nisbatan ustunligi kengaytirilgan takror Ishlab chiqarish iqtisodiy qonunining ifodasidir. Ishlab chiqarish faqat mahsulot Ishlab chiqarishdan iborat bo'lmay, balki taqsimot, ayirboshlash va iste'molnya o'z ichiga oladi. Ishlab chiqarishning rivojlanishi, avvalo, Ishlab chiqarish qurollarining

o'zgarishi va mukammallashishidan boshlanadi. Ishlab chiqarishning rivojlanishi jamiyat hamma a'zolarining farovonligini muntazam oshira borish va har tomonlama rivojlantirishga imkon beradi.

Qo'mita ma'lumotlariga ko'ra, 2021-yilda YaIM hajmi 734,6 trillion so'mni tashkil etdi va o'sish 7,4 foiz bo'ldi. 2020-yil bu ko'rsatkich 580,2 trillion so'mni tashkil qilgan edi.

Aholi jon boshiga hisoblangan YaIMning hajmi 21 million so'mga yetdi. Bu esa 2020-yilgiga qaraganda 5,3 foizga ko'proqdir. Shuni qayd etib o'tish kerakki, Jahon banki 2021-yilda O'zbekiston iqtisodiyoti 4,3 foizga o'sishini prognoz qilgan (1-rasm).

1-rasm



YaIM ning o'sish suratlari (jami)

Ishlab chiqarishni iqtisodiy rag'batlantirish - iqtisodiy omillar yordamida korxonalar iqtisodiy

manfaatlariga ta'sir ko'rsatadi. Ishlab chiqarishni iqtisodiy rag'batlantirish moddiy ishlab chiqarishni rivojlantirishning zarur va muhim shartidir. Davlat tomonidan Ishlab chiqarishni iqtisodiy rag'batlantirish imtiyozli kreditlar berish, ishlab chiqarishgaga to'g'ridan-to'g'ri subsidiyalar ajratish, soliq imtiyozlari berish, tashki faoliyatni moliyaviy qo'llab-quvvatlash, davlat harid narxlarini ko'tarish, ish haqidan olinadigan soliqlar stavkasini pasaytirish, eksport-import tovarlarini boj to'lovidan ozod qilish va boshqalardan iborat. Ishlab chiqarishni iqtisodiy rag'batlantirish korxonalar bilan davlat o'rtasidagi, korxonalararo hamda korxonalar bilan uning xodimlari orasidagi iqtisodiy munosabatlarni ifodalaydi. Shuning uchun Ishlab chiqarishni iqtisodiy rag'batlantirish ayni vaqtda, moddiy ishlab chiqarishdagi xo'jalik hisobi munosabatlarini ham aks ettiradi. Davlat bilan korxonalar orasidagi iqtisodiy munosabatlar korxonada olingan foydani taqsimlash, ishlab chiqarilgan mahsulotga narx qo'yish, ishlab chiqarish fondlari uchun to'lov me'yorlarini belgilash, korxonaga zarur bo'lganda kredit berish va b. tadbirlarda namoyon bo'ladi. Korxonalar bilan xodimlar o'rtasidagi munosabatlar esa ishchilar (mutaxassis)ning shaxsiy moddiy manfaatini qondirish uchun bo'lgan intilishlarida va ularning mehnatiga qarab haq to'lashda o'z aksini topadi (2- rasm).

2-rasm

Investitsiyalarning o'sish suratlari, aholi jon boshi hisobida



Ishlab chiqarishni iqtisodiy rag'batlantirish tizimi xodimlarining o'z mehnat natijalaridan bevosita moddiy manfaatdorligini ta'minlagan taqdirdagina yaxshi samara beradi. Shu tufayli Ishlab chiqarishni iqtisodiy rag'batlantirishni takomillashtirish, dastavval xodimlarni moddiy rag'batlantirish tizimini takomillashtirishni taqozo qiladi. Ishchilarni moddiy rag'barlantirish, asosan, ish haqi, mukofotlash, kashfiyot, ixtiro va rasionalizatorlik takliflari uchun taqdirlash orqali amalga oshiriladi. Korxonalarining fondi va boshqa manbalar hisobiga tashkil qilinadigan iqtisodiy rag'batlantirish fondlari, ijtimoiy madaniy tadbirlar va ishlab chiqarishni rivojlantirish fondlari Ishlab chiqarishni iqtisodiy rag'batlantirishdada katta

ahamiyatga ega.

Xulosa: Mamlakatimizda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlar milliy davlatchilik va suverenitetni mustahkamlash, xavfsizlik va huquq-tartibotni, davlatimiz chegaralari daxlsizligini, jamiyatda qonun ustuvorligini, inson huquq va erkinliklarini, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik muhitini ta'minlash uchun muhim poydevor bo'ldi, xalqimizning munosib hayot kechirishi, fuqarolarimizning bunyodkorlik salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratdi.

Iqtisodiyotda ma'muriy-buyruqbozlikka asoslangan boshqaruv tizimidan mutlaqo voz kechilib, bozor islohotlari bosqichma-bosqich amalga oshirilgani va pul-kredit siyosati puxta o'ylab olib borilgani makroiqtisodiy barqarorlikni, iqtisodiyotning yuqori sur'atlar bilan o'sishini, inflatsiyani prognoz ko'rsatkichlari darajasida saqlab qolishni ta'minladi hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, fermerlik harakatini rivojlantirish va ishlab chiqarishnikengaytirish uchun keng imkoniyatlar va qulay sharoitlar yaratilishiga xizmat qildi.

Ayni vaqtda mamlakatimiz bosib o'tgan taraqqiyot yo'lining chuqur tahlili, bugungi kunda jahon bozori konyunkturasi keskin o'zgarib, globallashuv sharoitida raqobat tobora kuchayib borayotgani davlatimizni yanada barqaror va jadal sur'atlar bilan rivojlantirish uchun mutlaqo yangicha yondashuv hamda tamoyillarni ishlab chiqish va ro'yobga chiqarishni taqozo etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "O'zbekiston iqtisodiy axborotnimesi" jurnali.
2. Olimjonov O., Malikov T., Moliya. T.: Iqtisod-Moliya, 2019 y.
3. Seytmuratov R.A., // darslik // Jamiyatni modernizatsiyalash va jamiyatni tarkibiy yangilash.
4. O'zbekiston iqtisodiyoti. T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006 y

Internet manbalari:

1. <http://www.cbu.uz> O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari.
2. <http://www.mf.uz> O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi ma'lumotlari